

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

QORAQALPOQ XALQ ERTAKLARIDA KOMIL INSON OBRAZINING FALSAFIY TALQINI

Aytmuratova Ziba Jalgasovna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, assistent.

e-mail: aytmuratovaziba@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-6852-4701>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada qoraqalpoq xalq ertaklarining falsafiy mazmuni tahlil qilinadi. Ertaklarda aks etgan borliq, inson tabiati, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash, komil inson konsepsiyasi hamda erkin iroda masalalari ilmiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, ertaklarning yoshlar tarbiyasidagi o'rni va ma'naviy ahamiyati, qahramonlar timsolida axloqiy yetuklik, donolik, adolat, sabr va insonparvarlik kabi fazilatlarning ifodalanishi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: qoraqalpoq folklori, ertak, falsafa, komil inson, axloq, qadriyat, dialektika.

ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА ИДЕАЛЬНОГО ЧЕЛОВЕКА В КАРАКАЛПАКСКИХ НАРОДНЫХ СКАЗКАХ

Айтмуратова Зибя Жалгасовна

Каракалпакский государственный университет имени Бердаха, ассистент.

Аннотация.

В статье анализируется философское содержание каракалпакских народных сказок. С научной точки зрения рассматриваются отражённые в сказках представления о бытии, природе человека, борьбе добра и зла, концепции совершенного человека и свободе воли. Особое внимание уделяется роли сказок в воспитании молодёжи и их духовному значению. Раскрывается воплощение в образах сказочных героев таких качеств, как нравственная зрелость, мудрость, справедливость, терпение и гуманизм.

Ключевые слова: каракалпакский фольклор, сказка, философия, совершенный человек, нравственность, ценности, диалектика.

PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF THE IMAGE OF THE IDEAL PERSON IN KARAKALPAK FOLK TALES

Aytmuratova Ziba Jalgasovna

Karakalpak State University named after Berdakh, Assistant.

Abstract.

This article analyzes the philosophical content of Karakalpak folk tales. It provides a scholarly examination of the concepts of existence, human nature, the struggle between good and evil, the ideal of the perfect human being, and free will as reflected in folk tales. Particular attention is paid to the role of folk tales in the education of young people and their spiritual significance. The article also explores how such qualities as moral maturity, wisdom, justice, patience, and humanism are embodied in the images of fairy-tale characters.

Keywords: Karakalpak folklore, folk tale, philosophy, perfect human being, morality, values, dialectics.

Kirish. Qoraqalpoq xalq ertaklari xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan noyob folklor namunasidir. Ertaklar nafaqat badiiy-estetik vazifani bajaradi, balki insonning hayot mazmuni, ezgulik va yovuzlik kurashi, adolat, mehnat hamda ma'naviy kamolot haqidagi falsafiy qarashlarni ham ifodalaydi.

Sharq falsafasida komil inson g'oyasi markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Ushbu konsepsiya insonning axloqiy pokligi, aql-zakovati, sabr-toqati va jamiyat oldidagi mas'uliyatini o'zida mujassamlashtiradi. Qoraqalpoq ertaklarida ham ana shu g'oya xalqning orzu-intilishlari va ideal inson haqidagi tasavvurlari bilan uyg'un holda namoyon bo'ladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi qoraqalpoq xalq ertaklarida komil inson obrazining falsafiy mazmunini ochib berish hamda uning yoshlar ma'naviy tarbiyasidagi o'rnini ilmiy asoslashdan iborat.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida bir-birini to'ldiruvchi bir necha ilmiy metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Avvalo, qoraqalpoq xalq ertaklarida komil inson obrazining falsafiy mohiyatini ochib berish maqsadida tavsifiy (deskriptiv) metod qo'llanildi. Ushbu metod yordamida ertaklarda uchraydigan ijobiy va salbiy qahramonlarning axloqiy fazilatlari, ularning ma'naviy kamolot yo'li hamda badiiy xususiyatlari tizimli ravishda tavsiflandi.

Shuningdek, ertaklarda aks etgan komil inson g'oyasining mazmunini chuqurroq anglash uchun germeneytik

(talqin) metod qo'llanildi. Mazkur metod asosida ertak syujetlari, ramziy obrazlar, fantastik motivlar va xalqona timsollarning falsafiy hamda ma'naviy mazmuni izohlandi. Bundan tashqari, tadqiqot davomida qiyosiy-tahliliy metod ham muhim o'rin egalladi. Ushbu metod yordamida qoraqalpoq xalq ertaklaridagi komil inson obrazi boshqa Sharq xalqlari folklorida uchraydigan ideal qahramon obrazlari bilan qiyoslandi hamda ularning umumiy va o'ziga xos jihatlari aniqlandi. Shu bilan birga, ertaklarning ichki tuzilishi, voqealar rivoji va qahramonlarning funksional vazifalarini aniqlash maqsadida strukturaviy-funksional tahlil metodidan foydalanildi. Natijada komil inson obrazining shakllanish bosqichlari, sinovlardan o'tish jarayoni va yakuniy kamolotga erishish modeli ilmiy asosda yoritildi. Bundan tashqari, ertak matnlarida takrorlanib keladigan axloqiy qadriyatlar, ezgulik va yovuzlik, adolat, mehnatsevarlik, sabr, donolik va insonparvarlik kabi tushunchalarni aniqlash uchun kontent-tahlil metodidan foydalanildi. Ushbu metod orqali mazkur kategoriyalarning qo'llanish chastotasi va mazmuniy vazifalari tahlil qilindi. Nihoyat, olingan ilmiy natijalarni umumlashtirish va nazariy xulosalar ishlab chiqish maqsadida analiz va sintez, induktiv hamda deduktiv yondashuvlar qo'llanildi. Natijada qoraqalpoq xalq ertaklarida komil inson obrazi xalqning ma'naviy ideali sifatida shakllangani, uning halollik, adolat, donolik, sabr, mehnatsevarlik va insonparvarlik kabi fazilatlar orqali namoyon bo'lishi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Shu tariqa, tanlangan metodologik yondashuvlar tadqiqot maqsadiga erishish hamda ishonchli ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Natijalar. Komil inson tushunchasi Sharq falsafasida muhim kategoriyalardan biri hisoblanadi. U insonning nafaqat jismoniy, balki ma'naviy, axloqiy va intellektual kamolotini ifodalaydi. Qoraqalpoq ertaklarida bu tushuncha xalqning kundalik hayoti, orzu-intilishlari va ideallari bilan uyg'un holda tasvirlanadi. Avvalo, ertaklarda komil insonning asosiy xususiyatlari — halollik, rostgo'ylik, jasorat, mehnatsevarlik va mehr-oqibat kabi fazilatlar orqali tasvirlanadi. Ijobiy qahramonlar ko'pincha oddiy, kamtar, lekin aqlli va sabrli bo'ladi. Ular turli sinovlardan o'tib, o'zining haqiqiy qadr-qimmatini namoyon qiladi [5]. Bu jarayon yoshlarni hayotdagi qiyinchiliklarga bardosh berishga, o'z ustida ishlashga va to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatadi. Ikkinchidan, ertaklarda komil inson obrazi orqali yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi farq aniq ko'rsatib beriladi. Yaxshi qahramonlar doimo mukofotlanadi, yomon obrazlar esa jazolanadi. Bu esa yoshlar ongida adolat, haqiqat va ezgulik g'oyalarini mustahkamlaydi. Natijada bolalar yaxshi va yomonni ajrata olishni o'rganadi va ijobiy fazilatlarini o'zida shakllantirishga intiladi.

Kelib chiqishi, mazmuni, tuzilishi, hajmiga ko'ra qoraqalpoq ertaklari fantastik, maishiy va hayvonlar haqidagi ertaklar kabi turlarga bo'linadi.

Fantastik ertaklarga turli tabiatdan tashqari kuchlar — maston kampir, dev, ajdarho, jin-shayton, jaytosh singari hamda turmushda uchramaydigan hodisalar — yer osti podsholigi, Semurg' qushga minib uchish va hokazo mavzudagi ertaklar kiradi. Bular maishiy ertaklarga qaraganda xayoliy-fantastik unsurlar ustunlik qiladi. Ammo maishiy ertaklarning ayrimlarida, masalan, «Aqlli qiz», «Xonni ishga solgan xotin», «Ikki do'st», «Bilag'on cho'pon» va hokazolarda umuman fantastik unsurlar ko'rinmaydi. Fantastik ertaklar namunasi sifatida «Qafasdagi qushni topgan bola» ertagini keltirishimiz mumkin. U xalq orasida keng tarqalgan. Bu halollikni, zulmga qarshi kurashni tasvirlovchi haqiqiy xalqchil asardir. Unda donolik, adolat, insonparvarlik kabi fazilatlar mahorat bilan tasvirlanadi.

Ushbu ertakning qisqacha mazmuni quyidagicha: bosh qahramon — boyning kenja o'g'li. Shunga qaramay, u mehnatkash, kamtarin, haqiqat tarafdori bo'lgan. U aqlli, niyati pok, vijdoni toza bo'lib ulg'aygan. Bola barcha qiyinchiliklarni o'zining mehnatsevarligi va yuksak insoniylik fazilatlarini bilan yengib o'tadi.

Bu yaxshi xislatlari uning ikki akasining g'azabini qo'zg'aydi. Bola o'z otasining topshirig'ini bajarib, maqsadiga yetganida, akalari uni o'ldiradi. Biroq kenja bolaning qushga qilgan yaxshiligi uni qayta tiriltiladi, adolat g'alaba qozonadi. Ukasiga yomonlik qilgan ikki aka hayotda o'z jazosini oladi. Ertakdagi bola obrazi orqali mehnatkash xalqning orzu-umidlari, maqsadlari, adolat va hamjihatlik g'oyalari bosh o'rinda turadi. Bu xalq istaklarining tarbiyaviy ko'rinishlaridan biridir. Bu ertakning kompozitsiyasi yomonlikka yaxshilikni obrazli tarzda qarama-qarshi qo'yishga va insoniylik hamda gumanizm g'oyasini yuksak baholashga asoslangan.

Shuningdek, ertakning tili sodda, tushunarli, xalq tiliga xosdir. Bu ertakda xayoliy-fantastik unsurlar ustunlik qiladi. Masalan, bolaning qora qush bilan do'st bo'lishi, qafasdagi qushni qutqarish chog'idagi qiyinchiliklari shunday tasvirlanadi: «Podshoh bolaga talab qo'yib, bunday deydi: Ko'k dengizning bo'yida, Oq dengizning narigi yog'ida, Azovli podshohning sutining qaymog'i, farmoniga bo'ysunar butun el-u ay mog'i, aqli ziyrak, so'zi tiniq, oydan go'zal, tishlari hino rang, Ohuzor otli qizi bor, shuni bizga olib kelib bersang, qushni senga beramiz», deydi. Bola qora qushning yordami bilan bu shartni bajaradi. Biroq ertakning syujeti yanada chigallashadi. Bola barcha shartlarni bajaradi. Buni xayoliy ertaklar deb atashimizga yana bir sabab, ularda fantaziya kuchli bo'ladi. Biroq bunda reallikka asoslanish lozim bo'ladi.

Bir vaqtlar odamzod uchar gilam va Semurg' qush haqida xayol surgan, xalq suvda baliqday suzishni, osmonda qushday uchishni orzu qilgan. Bugungi kunga kelib ularning barchasi haqiqatga aylandi. Ertak, afsona, rivoyat yaratishda ijodiy fantaziya ham muhim o'rin tutadi. Ertaklar ichida xayoliy obrazlar to'lib-toshib yotibdi, ularda odamlarning uzoq o'tmishda dunyoni qanday taniganini, tabiatni tirik jonzot deb tushunganini ko'ramiz. Qadimgi, eski ertaklarning aksariyati ko'ngilsiz, qo'rqinchli xarakterga ega bo'lgan: ajdarho, yalmog'iz kampir, yolg'iz ko'zli dev, jin-shayton, Xizr ota va hokazo. Ular ko'zga ko'rinmaganligi uchun juda qo'rqinchli bo'lib tuyulgan. Ertaklar chinakam xalq ijodi hisoblanadi, uning g'oyaviy mazmuni, qahramonlarning turli-tuman jihatlarini mehnatkash xalqning turmush sharoitini aks ettiradi.

Xayoliy ertaklarga asosan sehrli va hayvonlar haqidagi ertaklar kirsa, realistik ertaklarga maishiy va satirik ertaklar kiradi. Bu ertaklar o'z xususiyatiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Ertaklar ichida chechanlar, laqmachilar nutqi bilan bog'liq legenda turlari ham bo'ladi. Qoraqalpoq ertaklarida xayoliy ertaklarga qaraganda maishiy ertaklar ko'proq uchraydi. Xayoliy ertaklar yoki karomatli ertaklar deb atalishiga sabab, ularda xayoliy narsalar, xayoliy vaziyatlar va

xayoliy xarakterdagi obrazlar bo'lishidir. Ertaklarning bu turi qadimgi zamon ertagi bo'lib, unda eng qo'rqinchli narsalar ishtirok etadi. Bo'yi bir qarich, soqoli qirq qarich, yolg'iz ko'zli dev, ikki boshli ajdarho, yalmog'iz kampir... Odamlar ular oldida ojiz, ammo keyinchalik odamlar hiylakor bo'lib, o'z aqli bilan qo'rqinchli dushmani yo'q qiladi. Xayoliy ertaklarda, odatda, qahramon ojiz bo'lsa-da, so'ngida sehr yordamida, Semurg' qush yoki qanotli tulpor orqali murod-maqsadiga yetadi.

Hayvonlar haqidagi ertaklar. Hayvonlar haqidagi ertaklar xayoliy ertaklarga yaqin turadi, ma'lum bir jihatdan sehrli ertaklarga ham yaqinlashadi. Hayvonlar haqidagi ertaklar eng qadimgi zamon ertaklari sirasiga kiradi. Bu ertaklarning paydo bo'lishi qadimgi davr bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Ularda hayvonlar odamlar uchun eng qo'rqinchli maxluq bo'ladi, ular odamlarga nisbatan qudratliroq qilib ko'rsatiladi. Odamlar ular bilan kurashishga ojizlik qilgan. Aynan shu asosda xalqlarda hayvonlarga sig'inish kelib chiqqan.

Asta-sekin sehrli ertaklar singari hayvonlar haqidagi ertaklar o'zining shaklini o'zgartiradi, odamlar hayvonlarni yengadi, ularni boshqaradi. Bu odamlarning tabiatni boshqarib, tabiat ustidan hukmronlik qilgan bosqichiga to'g'ri keladi. Odamlar hayvonlarning piri bor deb qabul qiladi: tuyanining piri — Oysil qora, yilqining piri — Yilqichi ota, qora molning piri — Zangi bobo, qo'ynining piri — Cho'pon ota. Shunga o'xshash turli kasb odamlarining harakatiga mos keladigan xarakterini tushunadi. Kambag'al odam o'zining donoligi, topqirligi orqali boyni yengadi.

Qoraqalpoq xalq ertaklari orasida maishiy ertaklar juda ko'p bo'lib, ularning qiyin yechimni topa oladigan aqlli donolar, ayollar, ba'zi odamlarning aqlli va aqlsiz o'g'illari, uylanish, nikoh hamda ro'zg'orchilik haqidagi turlari mavjud. Bu ertaklarning ma'naviy madaniyatimiz va adabiyotimiz rivojiga katta ta'siri seziladi. Ertaklarda inson obrazlari g'oyat murakkab tarzda yaratilgan bo'lib, fantastik ertaklarda salbiy yalmog'iz kampir obrazi mahorat bilan beriladi. Masalan:

To'ppisi to'zgan,

Orqasi qo'zigan,

Ikki tizzasi ham qulog'idan ozgan,

Yetmishdan ortiq yashagan,

Say suyagi qaqshagan,

— degan satrlar bilan yalmog'iz kampir jirkanch qilib ko'rsatiladi. Ertaklardagi mehnatkash xalqning dushmani bo'lgan devlarning qo'rqinchli siymosi-obrazi esa:

Ko'zlari bor uraday,

Quloqlari qalqonday,

Qo'llari bor jabag'iday,

Oyoqlari moladay,

Burunlari juft aylana qozonday,

Tangridan kelgan baloday...

— deb tasvirlanadi. Odamlar o'z dushmanini qo'rqinchli qilib tasvirlaydi. Mehnatkash xalq esa o'zining xayoliy qahramoniga shunday qo'rqinchli yovni yengdiradi.

Ertaklar xalq hayotining ko'zgusi bo'lib, har bir xalqning dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liqdir. L. N. Tolstoy xalq ertaklarining ahamiyati to'g'risida shunday degan edi: «Ertaklar xalqning moddiy madaniyatidir, uni biz birma-bir yig'amiz. Ertaklar orqali ming yillik tarix ko'z o'ngimizda gavdalanadi». Ertaklardagi fantaziya va haqiqatning mehnat bilan bog'liqligi haqida A. M. Gorkiy o'z asarlarida qayta-qayta tushuntirib o'tgan. «Qadimda paydo bo'lgan har bir xayoliy uchar otning paydo bo'lish sababini aniqlash qiyin emas, chunki bu hamisha odamlarning o'z mehnatiga bo'lgan ishonchidan tug'ilgan orzu edi», deydi yana M. Gorkiy. Professional ertakchilar o'z atrofiga ertakchi shogirdlar to'plagan. Ertakchining o'zi turli kasb egasi bo'lib, o'zi shug'ullanadigan kasb-hunari haqida ertaklar aytib, ishlayotib mehnatini yengillashtirgan, aytgan ertagi esa qo'l mehnati mahsulining yaxshi chiqishiga yordam bergan.

Xalq afsonalarida aytilishicha, Jiranchi yo'lda ketayotib hamrohiga uzun yo'lni qisqartiraylik, deydi. Ya'ni yo'lda ketayotib ertak aytishaylik, demoqchi bo'lgan ekan. Mana shuning uchun ham ertaklarning paydo bo'lishida va ayrim hunar turlarining rivojlanishida ertaklarning o'rni o'zgacha bo'lgan. Balki, ertaklar kulolchilik, temirchilik, to'qimachilik, qurolsozlik va yana boshqa hunarlarning rivojlanishiga sabab bo'lgandir. Ayniqsa, botirlar haqida ko'proq so'z yuritiladigan ertaklarda xalq orasida shunday mard, jasur kishilar borligini, farzandlarini botir, mard, dovyurak etib tarbiyalashda buning ta'siri kattaligini bilgan xalq o'sha obrazlarni yaratgan. Hatto xalqqa ma'lum bo'lgan ayrim asarlar, ya'ni «Shohnoma», Abu Rayhon Beruniyning «Hindiston» asarlari negizida ham ertaklar yotadi.

Qoraqalpoq ertaklarining boshlanishi va yakunlanishi o'ziga xos bir shaklga ega bo'ladi. Ularning voqealari o'zaro ichki bog'liqlikka, so'z mahorati orqali yaratilgan obrazli ifodalarga ega bo'ladi. Ertaklarda so'z boyligidan o'z o'rnida mohirlik bilan foydalaniladi.

Ertaklarda ayol-qizlar obrazi, ularning go'zal qaddi-qomati juda maqtab tasvirlanadi. Ayol va qizlarning husni oy va yulduzlarga qiyoslanadi. Ular oy desa og'zi, kun desa ko'zi bor, suv ichsa tomog'idan ko'rinadi, deya ta'riflanadi. Tabiat manzaralari, peyzajlar esa gullar ochilgan, bulbullar sayragan tarzda tasvirlanadi. Ertaklar bolalarni hayotni anglashga, qiyinchiliklarni yengishga o'rgatadi.

Botir yo'lga chiqqanida, uning oldidan uch yoki to'rt tomonga ketgan yo'l chiqadi. Birinchi yo'ldan borgan kishi qaytib keladi, ikkinchi yo'ldan borgan odamning esa kelar-kelmasligi gumon, uchinchi yo'ldan borgan kishi esa qaytib kelmas ekan. Ammo bo'lajak botir borsa kelmas yo'lga safar qilib, turli dushmanlarini yengib, eliga qaytadi. Ertaklar «Botir bo'lsang, qiyinchilikni yeng!» degan shiorni singdiradi.

«Aqlli qiz» ertagida erkaklar bilan teng darajada mard, aqlli qizning obrazi shunday beriladi: otasi o'g'liga «Qo'yni sotib, pulini olib kel, sotmay turib o'zini olib kel», deganida, o'g'li qo'yni bozorga olib borib, yana qaytarib olib

kelavergan ekan. Shunda aqli qiz unga aql o'rgatadi: «Sen otangning so'zini tushun: qo'ylarning junini qirqib sotib, pulini olib kel, demoqchi ekanligini anglab ol!» — deb maslahat beradi.

Xalq ertaklarining insoniyat va uning madaniyati tarixida tutgan o'rni g'oyatda katta bo'lib, ular tirikchilikning ma'naviy ozuqasi sifatida odamlarga yordam bergan. Agar odamlar tabiat bilan kurashib, o'z tajribalarini aql bilan sinovdan o'tkazmaganida, hozirgi madaniyat bo'lmas edi. Odamlar o'z mehnatini yengillashtirish uchun xayol surib, orzularini ro'yobga chiqargan, dushmanlarini yengishni o'z tasavvurlari va tajribalari orqali amalga oshirgan. Odamlar ilgari osmonga uchishni, olovsi ovqat pishirishni, uzoqni ko'rishni orzu qilgan va xayolga berilgan. Bugungi kunda esa o'sha orzular deyarli haqiqatga aylangan desak, adashmaymiz.

Qoraqalpoq xalq ertaklarida botirning ajoyib tug'ilishi g'ayritabiiy holatda yuz beradi. Masalan: botirning hayvondan tug'ilishi, olma yeyishdan homila paydo bo'lishi, avliyolar qadamjosida tunab, farzandli bo'lishi va hokazo. Bunday holatlarni «Baytaldan tug'ilgan bola», «Arpamadiyon», «Yarimbosh botir» kabi ertaklarda ko'rishimiz mumkin. Masalan, «Arpamadiyon» ertagida podshohning qizi yerga to'kilgan arpani yeb, undan paydo bo'lgan homiladan bosh qahramon — bola dunyoga keladi, rus xalq ertaklarida esa bir qiz no'xat yeb farzandli bo'ladi va u yigit hamda botir bo'lib yetishadi. Ertaklarda pari qizlar obrazi ko'proq ko'zga tashlanadi. Ular juda go'zal, oy desa og'zi, kun desa ko'zi bor, deya tasvirlanadi. Ular nafaqat aqli va go'zal bo'lib qolmay, balki botir, kuchli, el-xalqini, yaqinlarini, suygan yorini qiyinchiliklardan himoya qilishda botir sifatida gavdalanadi. «Gulziba», «To'rt Abdulla», «Gulzamza», «Aqli qiz», «Xonsayat», «O'gay ona» ertaklarini bunga misol qilib ko'rsatish mumkin. Ular ajoyib kuchga ega bo'lgan dev, jin, pari kabi obrazlarni aqli bilan yengadi.

Ertaklar otadan bolaga o'tib, davrga qarab, shuningdek, ijrochi tomonidan o'zgarishlarga uchrab, bizning zamonimizgacha mif, afsona, rivoyat, ertak, dostonlar shaklida yetib keladi. Har bir davrning rivojlanish darajasiga qarab, har bir davrning o'ziga xos mifi, afsona-yu rivoyatlari borligini hamda ma'lum bir hodisa haqidagi tushunchalarda har bir zamonning o'z konsepsiyasi bo'lishini, bu esa insoniyat tafakkurining o'sishi natijasida rivojlangan ilm-fanga bog'liqligini, shuningdek, afsona, rivoyat, ertak, dostonlarning barchasi qadimgi davrlarda yaratilgan degan fikrga qo'shilmasligimizni alohida ta'kidlamoqchimiz.

Bu ertaklarning aksariyati syujetlari fantastik voqealarga asoslangan. Ularda xayoliy unsurlar, motivlar ko'p uchraydi. Bu, yuqorida aytib o'tganimizdek, dunyo hodisalarini ilmiy dalillab berish imkoniyati bo'lmaganligi natijasidir. Shu sababli tadqiqotchilarning fikricha, xayoliy — bu real hodisa va voqealarning fantastik talqinidir. Darhaqiqat, agar tabiatning barcha hodisalarini ilmiy asosda isbotlab berish darajasida ilm-fan rivojlanganida edi, ertaklarda xayoliy tasvirlar uchramas edi. Demak, qadimda yaratilgan asarlarning deyarli barchasi fantastika bilan sug'orilgan. Afsona va rivoyatlarda, xayoliy ertaklarda fantastik unsurlar uchraydi. Xalqning orzu-armonlari folklordagi uchqur xayol mahsuli bo'lgan fantastik obrazlarda namoyon bo'ladi. Yer osti podsholigi, yog'och ot, uchar gilam, tog', tosh, ko'l, dengiz, aqli, hatto so'zlaydigan otlar, devlar, ajdarho va hokazo ko'plab fantastik obrazlar qoraqalpoq folklorida harakat qiladi. Aynan folklorda shunday xayoldan yaratilgan cheksiz obrazlar mavjud.

Xayoliy ertaklarning tabiatdan tashqari unsurlardan iborat o'ziga xosligiga qarab, ko'pchilik olimlar bu janr eng qadimgi davrlarda paydo bo'lgan deb tasdiqlaydi. Xayoliy ertaklarni tinglab va o'qib o'tirib, xayol mahsuli bo'lgan qahramonlarning sehrli kuchlari, narsalar yordamida bir zumda zabt etmagan tog'i, oshmagan cho'li, yengmagan dushmani, olmagan qal'asi, xullas, qo'lidan kelmaydigan ishi yo'qligidan hayratda qolasiz va buni reallik sifatida ishonib qabul qilasiz. Ular osmonda ham uchib boradi, yer ostiga ham tushib boradi, bir-birini tosh qotirib qo'yadi yoki hayvonu qushga aylantiradi, qushlar, hayvonlar bilan suhbatlashadi... Qisqasi, bu janrlarda juda ajoyib fantastik tasvirlar o'rin olgan.

Folklordagi ertaklarda uchraydigan tasvirlar alohida ilmiy tadqiqot obyekti bo'lmagan. Biroq folklor tadqiqotchilari N. Davqaroyev [4], I. Sag'itov [8], Q. Maqsetov [6], S. Bahodirovalar [2] o'z asarlarida ertaklardagi unsurlarga ham umumiy sharh shaklida e'tibor qaratgan. Shunday bo'lsa-da, hali hech bir ishda folklordagi barcha obraz, predmet, motivlarga alohida to'xtalib, ularning nima maqsadda asarga kiritilgani, xalq ularni nima uchun o'ylab topgani, ilmiy asosga ega yoki ega emasligi, ularning o'ziga xosligi, dunyo xalqlari folkloridagi xayoliy ertaklarda mavjud unsurlar bilan taqqoslash kabi masalalar yoritilmagan. Shu sababli komil insonni tarbiyalashdagi ertaklarda uchraydigan obraz, predmet, motivlarga to'xtalib, yuqorida aytilgan masalalarni ochib berishni maqsad qilib qo'ydik. Eslatib o'tish joizki, ertaklarda fantastik obrazlar, narsalar harakat qiladi. Ularni muayyan guruhlariga ajratishda qiyinchilikka duch keldik, chunki an'anaviy usulda ijobiy va salbiy deb guruhlariga ajratib ko'rmoqchi bo'lsak, bu obraz va predmetlarning ba'zilar bir ertak yoki dostonda ijobiy tasvirlansa, boshqasida salbiy tasvirlanadi. Ilmiy-fantastik, diniy-fantastik va g'ayriilmiy obraz, predmetlar deb bo'lib ko'rmoqchi bo'lganimizda ham, ayrim obraz va predmetlarni bir guruhga kiritishda ikkilandik. Chunki ilmiy asosga ega emas yoki diniy fantastikaga oid deyilgan obraz va predmetlarning o'zi vaqt o'tishi bilan ilmiy asosga ega bo'lishi yoki umuman hayotda paydo bo'lishi mumkin. Masalan, ertaklardagi odamga ilon bilan so'zlashish imkonini beradigan toshni olaylik. Lekin odamlar uchun bir tildan ikkinchi tilga so'zlarni tarjima qiladigan apparatlar paydo bo'ldi. Shuning uchun ham biz jonli fantastik obrazlar, sehrli narsalar, fantastik motivlar deb bo'lib ko'rishni ma'qul topdik. Biroq bu ham shartlidir, chunki jonsiz hisoblangan sehrli narsalarning (masalan: quray, meva, daraxt, quruq kalla) o'zi ayrim ertak, doston va boshqalarda jonli narsalardek harakat qiladi, so'zlaydi.

Jonli fantastik obrazlar. «Pari» so'zi fors tilidan kelib chiqqan bo'lib, «yovuz kuch» degan ma'noni anglatadi. Lekin Sharq xalqlari folklorida keng tarqalgan obraz bo'lgan pari, ko'pincha, bu ma'noda emas, balki go'zal, pok, ko'rkam qiz sifatida ijobiy tasvirlanadi. U bosh qahramonning suyuklisi, yordamchisi, qo'lidan kelmaydigan ishi yo'q sehrigar, lekin halol bir jon, yomonlikka qarshi harakat qiladigan ayol-qiz obrazi sifatida namoyon bo'ladi. Pari ko'pincha qush, asl hayvon va boshqa ko'rinishlarda yuradi hamda xohlagan vaqtda istalgan qush yoki hayvonga aylanib keta oladi.

Shuningdek, u kallasini qo'liga olib, sochini yuvishi («Muratqan» ertagida va hokazo) ham tasvirlanadi. Yana asarlarda parilarning alohida podshohligi bor ekanligi ayrim ertaklarda aytiladi. Keng tarqalgan arab xalq ertagi «Ming bir kecha»ning ikkinchi kechasidagi ikkinchi chol hikoyasida bir pari: «Men o'zi musulmon pariman. Xudoga ham, payg'ambarga ham ishonaman», deydi. Albatta, bu islom dinining ta'siri ekanligi tushunarli. Parilarning qoraqalpoq folklorida qanot chiqarib uchishi ham aytiladi.

Qoraqalpoq xalqining tasavvurida parining vatani suv hisoblanadi. Shuning uchun ko'pincha suv parisi deb ataladi. Bu tushuncha boshqa xalqlar tushunchasi bilan mos keladi. Masalan, «Malay o'z xo'jayinini qanday o'ldirmoqchi bo'ldi?» ertagida suvda yashaydigan suv jini haqida gap boradi. Shuningdek, qudratli mifologik qushlar, Semurg', kabutar, uchuvchi ajdar, qudratli dev, jin-ajina va boshqalar ko'rinishida paydo bo'lgan.

Folklorida bosh qahramonlarni qudratli, kuchli qilib ko'rsatish uchun ularni paridan tug'ilgan qilib tasvirlash hollari uchraydi. Menimcha, Xizr ota, bobo — bu diniy-mifologik obraz bo'lib, islom dini kirib kelganidan so'ng asarlarga diniy tus berish uchun kiritilgan. «Gulnavor», «Shirin-Shakar», «Egiz bola», «Aqlsiz bola» va hokazo ko'pchilik ertak qahramonlariga qiyin paytida yordam qo'lini cho'zadigan, doimo yaxshilik tarafini oladigan, farzandsizga farzand in'om etadigan obraz hisoblanadi. Folklorida Bobo Xizr ota, Kombil pir, Qirq chiltan, g'oyib eran, Bobo Tukli Aziz, Xizr Ilyos, pirlar va h.k. nomlar bilan qatnashadi. Xizr haqida f.f.d., prof. S. Bahodirova: «Musulmon diniy mifologiyasining qahramonlaridan biri Xizr — yerning ostidan odamni o'lmaydigan qiladigan suv ichib, o'lmaydigan bo'lgan mifologik qahramon. U adashganga baxt, tilagan orzusiga yetkazadigan payg'ambar», deydi [2]. Chindan ham, folklorida Bobo Xizr xalqimizning dinga bo'lgan sodiqligidan bo'lsa kerak, katta muhabbat bilan tasvirlangan obrazlardan biridir.

Xo'ja Ahmad Yassaviy esa Turkistondan Makka-Madinaga oqqush bo'lib uchib, juma namoziga borib qaytar ekan. Sulaymon — Sharq xalqlarining, shuningdek, qoraqalpoq folklorida nomi ko'p tilga olinadigan barcha tiriklik olamining podshosi sifatida ko'rinadigan qahramon. Sharq afsonalaridan birida Sulaymonning sehrli Angushtar uzugi borligi, o'sha uzuk bir safar dushmani bo'lgan dev tomonidan o'g'irlanganda butun hukmronligidan ayrilgani aytiladi. Ya'ni Sulaymonning davlat boshqaruvi o'sha uzuk bilan bog'liq ekanligiga e'tibor qaratiladi. Yana uning Aspijahongir nomli oti «Shahriyor», «Gulnavor» dostonlarida va ayrim ertaklarda tilga olinib, qahramon qiyinalganda g'amxo'r bo'ladigan, aql va madad beradigan fantastik obraz darajasida tasvirlanadi. Sulaymonning o'zi ham bir qizning so'ziga ergashib, barcha qushlarni yig'ib, patdan uy qurishga farmon beradigan «Sulaymon podshoh va boyqush» afsonasida tasvirlanadi. Xalq o'zining aqlli va ahmoq podshohlarining obrazini berishni shu Sulaymon obraziga yuklagan.

Dev — folklorik asarlarning ko'pchiligida uchraydigan obraz [3]. Devlar dastlab xalqqa dushman sifatida salbiy harakati bilan ko'rinsa ham, keyin botirlar bilan kuch sinashish jarayonida yengilgandan so'ng unga halol xizmat qiladi. Ular ikki tog'ni ko'tarib, bir-biriga urib o'tirgan yoki bir ko'lning suvini bir ichadigan, yoxud uch kunlik masofadagi ovozni eshita oladigan va h.k. xususiyatlarga ega etib, xayol orqali tasvirlanadi. Ba'zi ertak va dostonlarda devlar o'z ismlariga ham ega. Masalan: «Arpa-madyan» ertagidagi devlar nomi: Tovchi, Ulug'pon; «Rustam»da — Ispandiyor; «Ayishli-Alpon»da — Tog'di-Tolqon; «Suvli-Surxon», «Qo'blon»da — Alang'asar va h.k. Devlar, yuqorida keltirilgan xususiyatlarni hisobga olmaganda, boshqa jihatdan oddiy odamdan farq qilmaydi.

Folklorida devlarning qudratli, duoxon bo'lib tasvirlanishi xalqning o'z sevgan qahramonlarini shunday devlarni yenggan, ya'ni kuch-qudrati cheksiz odamlar sifatida ko'rsatishiga imkoniyat bergan. Ot — doimo bosh qahramonning eng yaqin yordamchisi, sirdoshi sifatida ko'rinadi. Shuningdek, unga aqllilik, duoxonlik xususiyatlari ham xos. Masalan, «Gulzamza» ertagida, «Gulnavor» dostonida suv tulporining — otning ko'kka uchishi aytilgan. Otning aqlli qilib tasvirlanganini «Qo'lamergen», «Qo'blon», «Qaraman» va h.k. ertak va dostonlardan ko'rishimiz mumkin. Xullas, ot — xalqning eng sevimli «texnikasi», maslahatgo'yi, yordamchisi [1].

Ajdarho — ko'pchilik ertaklarda va dostonlarda salbiy obraz sifatida ishtirok etadi. U butun bir elni yoki shaharni qo'rquvga soladigan, kuniga bir odam yoki go'zal qiz berish sharti bilan shahar va elni yutmay o'tirgan bahaybat maxluq. Faqat «Oltin boshli ajdar» ertagida, unda ham yigit yordam berganligi sababli, ajdar yigitga ko'p in'omlar beradi. Lekin unda ham bir so'zida ajdarho o'zini ajdarho qiyofasidagi pari ekanligini aytadi. Ertaklarda doimo bosh qahramon uni qilichini ko'ndalang tutib borib o'ldiradi.

Muhokama. Olingan natijalar V. Ya. Proppning sehrli ertaklar strukturasiga oid nazariyasi hamda A. F. Losevning mif va madaniyat haqidagi falsafiy qarashlari bilan uyg'unlik kasb etadi. Ertak qahramonining sinovlardan o'tishi tashqi sarguzasht emas, balki insonning ichki ma'naviy yetilishi jarayonini ham ifodalaydi.

«Qafasdagi qushni topgan bola» ertagida bosh qahramonning halolligi, mehnatsevarligi va insonparvarligi uning komillikka erishishining asosiy omili sifatida namoyon bo'ladi. «Aqlli qiz» ertagida esa komil inson faqat jismoniy kuch bilan emas, balki tafakkur, donolik va topqirlik orqali ham gavdalanadi.

Fantastik obrazlar ham falsafiy ramz vazifasini bajaradi. Dev va ajdarho insonning nafsini hamda yovuzlikni bildirsa, Semurg' va Xizr ota ezgulik, umid va ilohiy madad timsolidir. Shu sababli ertaklar real voqelikni fantastik shaklda aks ettiruvchi falsafiy-badiiy tizim hisoblanadi.

Xulosa. Qoraqalpoq ertaklarining falsafiy talqini ularning nafaqat badiiy, balki chuqur ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ertaklar orqali insonning axloqiy kamoloti, jamiyatdagi o'rni va hayot mazmuni yoritiladi. Shu bois, ular yosh avlodni tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Qoraqalpoq xalq ertaklarida yaratilgan ijobiy obrazlar bugungi va kelajak yoshlarning komil inson obrazini qabul qilishi yo'lida yetarli asosga ega bo'lgan ideal va real sifatlarni o'zida mujassam etgani bilan ahamiyatlidir. Ushbu obrazlar orqali insonning mukammallikka intilishi, axloqiy poklik, adolat va insonparvarlik g'oyalari targ'ib qilinadi. Ertaklar nafaqat badiiy meros, balki yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

1. Qaraqalpaq xalıq ertekleri. – Nókis: «Qaraqalpaqstan», 2019. – 428 b. Foydalanilgan sahifalar: B. 24–27. URL: [Bibliografik tasdiq — “Til va adabiyot” ilmiy jurnali](#)
2. Баҳадырова С. «Китаби дедем Қорқыт», «Қоблан», «Едиге» хэм хәзирги әдебият ҳаққында ойлар. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1992. – 171 б. URL: [OAK avtoreferatidagi bibliografik tasdiq](#)
3. Славянская мифология: энциклопедический словарь / отв. ред. С. М. Толстая; редкол.: Т. А. Агапкина, О. В. Белова, Л. Н. Виноградова, В. Я. Петрухин. – 2-е изд., испр. и доп. – Москва: Международные отношения, 2002. – 512 с. URL: [Институт славяноведения РАН — rasmiy nashr sahifasi va to'liq matn](#)
4. Дәўқараев Н. Шығармаларының толық жыйнағы: үш томлық. – Т. II. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1977. – 356 б. URL: [Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy kengash avtoreferati — bibliografik tasdiq](#)
5. Лосев А. Ф. Философия. Мифология. Культура / вступ. ст. А. А. Тахо-Годи. – Москва: Политиздат, 1991. – 524, [1] с. – (Мыслители XX века). – ISBN 5-250-01293-0. URL: [Российская государственная библиотека искусств — katalog yozuvi](#)
6. Мақсетов Қ. Қарақалпақ халқының көркем аўызеки дөретпелери. – Нөкис: Билим, 1996. – 340 б. URL: [Bibliografik tasdiq — ilmiy dissertatsiya manbalari](#)
7. Пропп В. Я. Исторические корни волшебной сказки / вступ. ст. В. И. Ереминой. – 2-е изд. – Ленинград: Издательство Ленинградского университета, 1986. – 364, [1] с. URL: [Большая российская энциклопедия — bibliografik kartochka](#)
8. Сағитов И. Т. Қарақалпақ халқының қаҳарманлық эпосы. – Нөкис: Қарақалпақ мәмлекет баспасы, 1963. – 352 б. URL: [Qoraqalpoq folklorshunosligi bo'yicha ilmiy manbadagi bibliografik tasdiq](#)